



## TIL O'RGANISHDA LINGVOMADANIY TADQIQOT ASOSI



**Soliyeva Nargizaxon Shavkatjon qizi**  
*Dang'ara tumani 31 - umumiy o'rta maktab*  
*ingliz tili fani o'qituvchisi*

Bugungi kunga va tarixga nazar soladigan bo'lsak, til o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyoj hech qachon kamaymaganini, balkim yanada ortib borayotgani hech kimga sir emas. Shuni yana ta'kidlash muhimki, hozirgi dunyo sivilizatsiyasida til - ilm o'rganish va yoyish uchun ko'prik tushunchasiga aylanib qolgan. Tilni o'rganayotgan va o'rgatayotganimizda esa tilni faqatgina so'zma so'z tarjima qilish, yodlash orqali anglab shu til egalaridek foydalana olmasligimizni angalaymiz. Quyidagi maqolada til egalarining tarixi, madaniyati, an'analari uzviy bog'lagan holda o'rganish muhimligi va bunga yaqqol misollar berish bilan ko'rib chiqamiz. Til o'qituvchisi sifatidagi faoliyatim davomida har darsda madaniyatlar, tarixlar kesimida tushintirish sezilarli darajada tez o'zlashtirishga olib kelganini guvohi bo'lib kelmoqdaman.

Til va madaniy to'qnashuvi XX asrning 90 yillarida tilshunoslik bilan ma'daniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi, lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) paydo bo'lishiga olib kelgan. U tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida tan olindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida deyarli barcha tadqiqotchilar ushbu nazaryaning ildizi V. fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar. Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus, o'zbek tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etilishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A. Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi. Mazkur o'quv qo'llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, obyekti va predmeti, yo'nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan [1. 208]. Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Professor N. Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi va yo'llarini izlab" nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib beriladi. Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin. Andijon davlat universiteti o'qituvchisi O. Ahmedovanning "Lingvokulturologiya tilning madaniy fenomeni sifatida" nomli maqolasida ham lingvokulturologiya fanining kelib chiqish tarixi va uning



tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida tutgan o'rnini haqida ma'lumotlar keltirilgan.[2]

Tilshunoslar tilni lingvokulturologik nuqtai nazardan yoritish shu tilni ona tili yoki boshqa bir chet tili bilan qiyoslash orqali o'rganishdir, degan tezisga tayanishlarini aniqladim. Bu o'rinda lingvokulturologiyani madaniy axborotni yetkazishning udumga aylangan usullari ayniqsa ko'prok qiziqitirdi. Og'zaki va yozma an'analar bilan bog'liq nutq odobi jamiyat qurilishi va ijtimoiy turmush qoidalari bilan bog'liq madaniy axborotning juda katta miqdorini yetkazadi. Bu yerda suhbat olib borishning nutq standartlari (suhbatga kirishish, uni qo'llab-quvvatlash va yakunlash), murojat etish, undov, taqiqlash, efemizmlash va boshqa shakllari madaniy axborotni yetkazishning alohida shakllari hisoblanadi. Hozirgi lingvokulturologiya zamonaviy kommunikatsiya vositalari: kino va televidenye, matbuot, reklama, kompyuter texnikasi, graffiti yordamidagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor beradi. Jamiyatda kasbiy jargonlar, shevalar va tilning milliy variantlari, lahjalarining shakllanishi hamda amal qilishi masalalari, shuningdek umummilliy til, uni xalqona - suhbatlashuv va adabiy yozma shaklining yaratilishi masalalari shu yo'nalish doirasidagi lingvokulturologik tadqiqotlarga kiradi. Madaniyatni tildan foydalanuvchi inson yaratadi.[3.35-36.] Har bir lisoniy shaxs ayni paytda madaniy shaxs hamdir. Shuning uchun lisoniy belgilar madaniyat "tili" funksiyasini bajarish imkoniyatiga ega.

Har bir til o'ziga xos madaniyatning ramzi sanaladi. Jumladan, spiker, kriket, shilling - Angliya; yaylov, qishloq, ariq, dehqon, cho'l O'rta Osiyo; sakura, geysa, ikebana, sake yapon madaniyatining belgilarini assotsiatsiyalaydi. Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi. Lakunalar (lot. lacuna - bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy) - matnda bo'sh qolgan, tushib qolgan joy, tilning semantik xaritasidagi oq dog'laridir.[4] Muqobilsiz leksika singari lakunalar ham tillarning qiyosida seziladi. Lekin tilni o'rganayotganimizda bunday ramzlarni tarjima qilinmasdan o'rganish va yoyish samarali bo'lishini aniqladim.

Tildagi stereotiplar ham til va madaniyatlar to'qnashuvida asosiy rol o'ynaydi. Masalan, nemislar tartibliligi, yaponlar sermulozamatligi, turklar hissiyotlilik, qozoqlar qaysarligi, o'zbeklar mehmondo'stligi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqargan. Amerikaliklarda biror joy biror narsasi bilan mashhur bo'lsa, "capital" iborasini ishlatishadi. Bunda u o'z tag monasida emas, balkim mashhurlik ma'nosida keladi. Masalan, Chicago is the pizza capital of US; Kokand is the handicrafts capital of Uzbekistan. Amerikada : John Hancock<sup>104</sup> kerek dib oldingizga kelishsa nima javob qilishingiz kerek. Albatta bu til egalarining tarixi va madaniyatiga bog'lanib ketgan so'z birliklaridan birini anglatuvchi "imzo" so'zidir. A.A.Leontev shunday yozgan: "Nutqiy muloqotning milliy- madaniy xususiyati bizning tasavvurimizda mazkur milliy-madaniy jamoaga xos bo'lgan tuzilishdagi farqlar,

<sup>104</sup> John Hancock Amerikaning Mustaqillik deklaratsiyasini imzolagan birinchi shaxsdir va u ismini me'yordanda uzun yozgan.



muloqot jarayonlarining funksiyalari va usullariga bivosita bog'liq bo'lgan omillar tizimidan tashkil topgan bo'ladi. Ushbu omillar jarayonga turli darajada "qo'shiladi", ularning tuzilishi va o'zi farqli tabiatga ega bo'lsa-da, jarayon ichida ular, avvalo, lisoniy, psixolingvistik va umumpsixologik omillar bilan o'zaro aloqada bo'ladi.[4.70] Sharq madaniyatida o'zidan Yoshi kattalarning bari bilan hurmatlash, sizlab hushmuomalik bilan so'zlashish axloq qoidalaridan hisoblansa; G'arb mamlakatlarida esa hali uncha yaqin bo'lmagan va notanish insonlar bilan shunday muomala qilish odat hisoblanadi. Ular yaqin munosabat o'rnatishganda esa yaqinlik belgisi sifatida do'stona muloqot qilishadi.

O'rganilgan va topilgan faktlardan shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Yer yuzidagi jamiki tilni o'rganar ekansiz, uni milliy an'analari va madaniyatidan ayri holda to'liq anglay olmas ekansiz. Tilning madaniyati, kundalik turmush odatlari - uning tilida o'z aksini topar ekan, avvalo uning madaniyatini o'rganishimiz kerak. Tilni o'rgatayotgan har o'qituvchi shuni hisobga olgan va tushingan holda mavzularni yoritishi - o'rganuvchi uchun tilni o'zlashtirishga oson, tez va yodda saqlab qo'llashga qulay qilishi aniq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maslova V.A. Lingvokulturologiya: Ucheb. Posobie. M.: Academia, 2001-208s.
2. O. Ahmedova "Lingvokulturologiya tilning madaniy fenomeni sifatida" nomli maqolasi.
3. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2001.
4. I.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, Z.Xolmanova, R.Majidova, Sh.Sultonova //Darslik// Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish) — T.: «Barkamol fayz media», 2018.
5. Mahmudov N. – Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 2012.-№5.
6. Vorobyev V.V. Lingvokulturologiya. Teoriya i metodi. –M., 1997.